

SHARTNOMA № 42

Paxtaobod tumani

« 19 » may 2022 y

O‘z Nizomiga asosan faoliyat yurituvchi “**PROGRESS BUILDING MAX**” MCHJ bundan buyon «Bajaruvchi» deb yuritiladi, uning nomida rahbar **D.Kazakova** bir tomondan va “**Paxtaobod tuman xalq ta’limi bo‘limi** nomidan uning rahbari **A.Usmonov** ikkinchi tomondan bundan buyon «Buyurtmachi» deb yuritiladi, quyidagi mazmunda shartnoma tuzdik:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1 “Bajaruvchi” o‘ziga tegishli bo‘lgan va kelishilgan quyidagi mollarni taklif etadi, “Buyurtmachi” esa ushbu hizmatlarni qabul qilib olib, hisob kitob qiladi

№	Tovarning nomi va lot raqami (Lot № <u>22110012081150</u>)	O‘lchov birli-gi	Miq- dori	Boshlan- g‘ich summasi	Shartno- ma summasi
1	Paxtaobod tumani xalq ta’limi bo‘limiga qarashli 8-maktab binosini mukammal ta’mirlesh uchun Loyixa-smeta xujjatlarini tayyorlash xizmati	Hizmat	1	4.560.000	4.000.000
	Itog:				4.000.000

Shartnomaning umumiy summasi: **4.000.000** (To‘rt million) so‘mni tashkil etadi.

2. SHARTNOMA BAHOSI VA HISOB KITOB TARTIBI

2.1. Hisob kitob «Buyurtmachi» tomonidan pul o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

2.2. Shartnoma kuchga kirgandan so‘ng 5 bank ish kunida «Buyurtmachi» bajaruvchi beriladigan hizmatlarning umumiy summasining 30% miqdoridagi summani oldindan avans tariqasida "Bajaruvchi"ning hisob raqamiga o‘tkazib beradi.

2.3. Qolgan 70% to‘lov "Bajaruvchi" tomonidan bajarib berilgan hizmatlarning dalolatnomalari asosida 10 kun ichida o‘tkazib beradi.

2.4. «Buyurtmachi» tomonidan 30% to‘lov oldindan avans tariqasida amalga oshirilgandan so‘ng «Bajaruvchi» 15 bank ish kuni davomida mazkur shartnomada ko‘rsatilgan miqdorda va narhlarda hizmatlarni «Buyurtmachi»ga bajarib beradi.

3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Tomonlar boshqa tomonning xujjatini rasmiylashtirmasligi yoki noto‘g‘ri rasmiylashtirish uchun javobgar emasdir.

3.2. «Bajaruvchi» huquqlari va majburiyatlari:

- Berilgan buyurtmanomaga muvofiq bajaruvchi berilgan “Tovar (xizmat)”ni qabul qilish asossiz rad etilishi natijasida etkazilgan zarar qoplanishini talab qilish huquqiga ega.

- Agar “Tovar (xizmat)”ni bajaruvchi berish jarayonida “Bajaruvchi” shartnoma shartlari va normativlardan chekinishga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa “Buyurtmachi”ning talabi

bilan aniqlangan barcha kamchiliklarni 3 kun muddatda bepul tuzatib berishga majburdir.

3.3. «Buyurtmachi» huquqlari va majburiyatlari:

- Kamchiliklarni bepul bartaraf etilishini yoki kamchiliklar “Buyurtmachi” yoki uchinchi shahslar tomonidan to‘g‘rilanishini harajatlarini qoplanishini talab qilishga;
- Mazkur shartnoma shartlari bajarilmaganligi natijasida etkazilgan zararni qoplanishini “Bajaruvchi” dan talab qilish xukukiga ega.

4. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI.

4.1. “Tovar (xizmat)”ni belgilangan vaqtda bajarib bermaganligi uchun “Bajaruvchi” “Buyurtmachi”ga o‘tib ketgan muddatning har bir bank kuni uchun bajaruvchi berilmagan hizmatning qiymatidan 0.1% miqdorida, lekin shartnomaning 10% dan ortmagan miqdorida jarima to‘laydi.

4.2. “Tovar (xizmat)”ni bajaruvchi berish bo‘yicha shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarini bajarilishi rad etilganligi uchun “Buyurtmachi”ga belgilangan ustamalardan tashqari bajarib berilishi kerak bo‘lgan “Tovar (xizmat)”ning 20% miqdorida jarima to‘laydi. Jarimadan tashqari “Buyurtmachi”ga “Tovar (xizmat)”ni bajarib berolmasligi natijasida etkazilgan zararni to‘laydi.

4.3. “Tovar (xizmat)”ni bajaruvchi berish kechiktirilgan yoki to‘liq bajaruvchi berilmagan taqdirda “Bajaruvchi” “Buyurtmachi”ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiy bajarilmagan qismining 0.5% miqdorida penya to‘laydi. Biroq bunda penyaning umumiy summasi bajaruvchi berilmagan “Tovar (xizmat)” qiymatining 50% dan ortiq bo‘lmasligi kerak.

4.4. Bajaruvchi berilgan “Tovar (xizmat)” uchun o‘z vaqtida haq to‘lanmaganda “Buyurtmachi” “Bajaruvchi”ga muddati kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to‘lov summasining 0.4% miqdorida penya to‘laydi, biroq bu kechiktirilgan to‘lov summasining 50% dan ortiq bo‘lmasligi kerak.

5. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBLARI

5.1. Kelishmochiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko‘ra, mustaqil ravishda ular sudgacha hal etish choralarini ko‘radilar.

5.2. Kelishuv bilan hal qilinmaydigan nizolar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan belgilangan tartibda hal qilinadi.

6. FORS – MAJOR

6.1. Tomonlarga bog‘liq bo‘lmagan xolatlar «Yong‘in, suv toshqini, shu kabi boshqa xolatlarda hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va Vazirlar Maxkamasining qarorlari», agar tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan taqdirda majburiyat bajarilmaganligi uchun tomonlar javobgarligidan ozod etiladi.

6.2. Yuqoridagi xolatlar yuzasidan darxol xabarnoma yuborilishi majburiydir.

7. BOSHQA SHARTLAR

7.1. Shartnoma tuzish va uni bajarishda yuzaga keladigan nizolar belgilangan tartibda iqtisodiy sudi tomonidan hal qilinadi.

7.2. Shartnoma har ikkala tomonning bevosita kelishuviga binoan bekor qilinishi mumkin.

7.3. Barcha o'zgartirish va ko'shimchalar yozma ravishda rasmiylashtirilgan hamda har ikki tomonlarning vakolatli vakillari imzosi va muhrlari bo'lgan taqdirda hisobga olinadi.

7.4. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, uning bir nusxasi «Bajaruvchi» da ikkinchi nusxasi «Buyurtmachi»da saqlanadi.

8. SHARTNOMA AMAL QILISH MUDDATI

8.1. Shartnoma imzolanib tegishli G'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tgan kundan kuchga kirib, «31» dekabr 2022 yilgacha amal kiladi.

9. TOMONLARNING HUQUQIY MANZILI VA BANK REKVIZITLARI.

«BAJARUVCHI»

“PROGRESS BUILDING MAX” MCHJ

(bajaruvchi beruvchi nomi)

Manzil: Izboskan tumani

Tel: +998914877954

X/R 20208000605127571001

INN: 306 583 655

MFO: 00083

Bank nomi: "HAMKORBANK" AT
bankining Andijon shahar bosh ofisi

XXTUT: 66000

Rahbar  **D.Kazakova**

(imzo)

(f.i.o)

M.U



«BUYURTMACHI»

“Paxtaobod tuman xalq ta'limi bo'limi”

(byudjetdan mablag' oluvchining nomi)

Manzil: Kelajak ovozi ko'chasi

Tel/faks +99894-439-02-26

SHXR:

* 100022860032327092100075062

401722860032327092100075006

INN: 200 294 928. **Stir:** 201 122 919

MFO: 00014

Bank nomi: Markaziy bank XXKM
Toshkent shahri

XR: 23402000300100001010

XXTUT: 97600

Rahbar


(imzo)

A.Usmonov

(f.i.o)



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA**

№ BG62864612

2022 yil 19 may

Paxtaobod tumani

1. Loyihaning turi - Shartnoma

2. Loyihaning nomi- Xaq evaziga xizmat ko'rsatish to'g'risida.

O'z Nizomiga asosan faoliyat yurituvchi **“PROGRESS BUILDING MAX”** MCHJ bundan buyon «Bajaruvchi» deb yuritiladi, uning nomidan rahbar **D.Kazakova** bir tomondan va **“Paxtaobod tuman xalq ta'limi bo'limi** nomidan uning rahbari **A.Usmonov** ikkinchi tomondan bundan buyon «Buyurtmachi» deb yuritiladi, quyidagi mazmunda shartnoma tuzdik:

SHARTNOMA PREDMETI

“Bajaruvchi” o'ziga tegishli bo'lgan va kelishilgan quyidagi mollarni taklif etadi, “Buyurtmachi” esa ushbu hizmatlarni qabul qilib olib, hisob-kitob qiladi

Shartnomaning umumiy summasi: **4.000.000** (To'rt million) so'mni tashkil etadi.

Shartnoma bo'yicha taraflarning javobgarligi me'yori va nizolarni hal etish tartibi qonunchilik talablariga mos keladi.

Asos:O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 22 sentyabrdagi PQ-5250-son qarori.

Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot

Loyiha Paxtaobod tuman Xalq ta'lim bo'limi tomonidan 2022 yil 16 may kuni ishlab chiqilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Yuridik xizmat ko'rsatish markazi
bosh yuriskonsulti**



M.Ismoilova.